



## SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA SOTSIOLINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIKA

Mustafayeva Nodira Abdujalilovna,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va ,sport

universiteti,o'qituvchisi f.f.f.(P.h.D.)

[nodira197605@gmail.com](mailto:nodira197605@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19812798>

### ARTICLE INFO

Received:14<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 15<sup>th</sup> April 2026

Published: 27<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

sotsiolingvistika, pragmalingvistika, sotsial xoslanish, dramatik nutq, Sharof Boshbekov, nutq akti, ijtimoiy rol.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada yangi davrga oid sotsiolingvistika va pragmalingvistika kesishmasida muhim ilmiy guruhi bo'lgan sotsial xoslanish tushunchasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharof Boshbekov dramalari til materialini sifatida tanlanib, undagi qahramonlar nutqida ijtimoiy mavqe, kommunikativ vaziyat va pragmatik maqsadlarning til elementlari vositasida ifodalanishi ochib beriladi. Maqolada sotsial xoslanishning leksik, pragmatik va dialogik darajadagi holatlari aniqlanadi va ularning dramatik matndagi badiiy-estetik funksiyasi asoslab beriladi.*

Pragmalingvistika til birliklarining nutq jarayonida, muayyan vaziyat, maqsad va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda qo'llanishini o'rganadi. [8:11]. Bu yo'nalishda til faqat tizim emas, balki ijtimoiy harakat vositasi sifatida talqin qilinadi. Nutqiy faoliyat nazariyasi yondashuvida nutq ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, ularning o'zaro munosabati, nutqning kommunikativ maqsadi hamda nutq yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy kontekst muhim hisoblanadi[9:24].

Sotsial xoslanish — bu til birliklarining (so'z, ibora, grammatik shakl, nutq strategiyasi) muayyan ijtimoiy guruh, kasb, mavqe, yosh, jins yoki madaniy qatlamga xos tarzda qo'llanishidir.[10:18]. Nutq pragmatikasi kesishmasida sotsial xoslanish til birliklarining nutq vaziyatida ijtimoiy rol va maqomga mos ravishda tanlanishi va funksional yuklama kasb etishi sifatida izohlanadi [9:32]. Pragmatik nuqtayi nazardan sotsial xoslanish nutq maqsadiga xizmat qiladi, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy masofani belgilaydi hamda nutqda ta'sirchanlik va rasmiylik darajasini oshiradi [5:56]. Masalan, rahbar nutqida buyruq va qat'iy shakllar, talaba nutqida esa izohli va iltimos shakllari ustuvor bo'lishi, tengdoshlar muloqotida esa erkin va so'zlashuv uslubi qo'llanishi pragmatik tanlov natijasidir [2:41]. Pragmalingvistik omillar va sotsial xoslanishda sotsial xoslanishni yuzaga keltiruvchi asosiy pragmatik omillar:

- 1.Ijtimoiy rol (ustoz–shogird, rahbar–xodim)
- 2.Ijtimoiy mavqe (yuqori/past status)
- 3.Kommunikativ vaziyat (rasmiy/norasmi)
- 4.Nutq maqsadi (buyurish, iltimos, ta'sirlash)
- 5.Madaniy me'yorlar va odob qoidalari

Bu omillar natijasida bir xil ma'no turli sotsial shakllarda ifodalanadi.

Sotsial xoslanishning til sathlarida namoyon bo'lishi Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan sotsial xoslanish: Leksik sathda (kasbga xos atamalar, jargon, rasmiy so'zlar) Grammatik sathda (hurmat shakllari, buyruq mayli, shaxs-son kategoriyasi) Nutq aktlarida (iltimos, buyruq, maslahat, Diskurs darajasida (dialog qurilishi, nutq strategiyalari) [8:11]. Sotsial xoslanishni yuzaga keltiruvchi asosiy pragmatik omillarga ijtimoiy rol, ijtimoiy mavqe, kommunikativ vaziyat, nutq maqsadi hamda madaniy me'yorlar kiradi [12:19]. Sotsial xoslanish — bu til birliklari va nutqiy xatti-harakatlarning ijtimoiy omillar ta'sirida tanlanishi va shakllanishi jarayonidir. U quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

- a) so'zlovchining ijtimoiy mavqei;
- b) nutqvaziyatining rasmiy yoki norasmiyligi;
- s) kommunikantlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa;
- d) milliy-madaniy me'yorlar va qadriyatlar. [13:73].

Tilshunoslik tarixida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday fan taraqqiyoti muayyan bosqichlardan iborat bo'lib, ular o'z davri uchun yangilik sifatida namoyon bo'lsa, keying davrlar uchun fan asoslarining shakllanishida nazariy manba vazifasini o'taydi. [6.;1.] Sharof Boshbekov dramalarida ijtimoiy va kommunikativ mohiyatini ko'rib chiqanimizda ijtimoiy ahamiyatdan kelib chiqqan holda Sharof Boshbekov zamonaviy o'zbek dramaturgiyasida ijtimoiy muammolarni kulgi, istehzo va hayotiy qarama-qarshiliklar orqali ochib berishi bilan ajralib turadi. [4:7]. Uning dramalarida jamiyatning kundalik hayoti, oddiy insonlarning ichki kechinmalari va ijtimoiy kelishmovchiliklar markaziy o'rin egallaydi. [4:15]. Yozuvchi dramalarida quyidagi ijtimoiy masalalar yetakchi hisoblanadi: Oilaviy munosabatlar va maishiy muammolar (er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzand munosabatlari); Jamiyatda shaxs erkinligi va mas'uliyati; An'anava zamonaviylik to'qnashuvi; Byurokratiya, rasmiyatchilik va ikkiyuzlamachilik.

Masalan, "Temir xotin" dramasi texnologiya va inson munosabati orqali erkak va ayol o'rtasidagi jamiyatga oid obrazlar, oiladagi mas'uliyat va mehr yetishmovchiligi masalasi ramziy tarzda ko'rsatib beriladi. [4:47]. Bu asar kulgili shaklda bo'lsa-da, chuqur ijtimoiy tahlilni o'z ichiga oladi.

Og'zaki nutqqa xos leksika va ijtimoiy qatlam Sh. Boshbekov dramalarida xalqona, og'zaki nutqqa xos so'zlar va iboralar ko'p uchraydi. Bunday leksik birliklar orqali qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va turmush tarzi ifodalanadi. Masalan: oddiy xalq vakillari nutqida sodda, ba'zan qo'pol yoki kinoyali so'zlar ishlatiladi; ziyoli yoki ma'lum lavozimdagi qahramonlar nutqida nisbatan tartibli va mulohazali leksika qo'llanadi. Mazkur qarama-qarshilik dramatik to'qnashuvni kuchaytiradi va jamiyatdagi tabaqalanishni so'z tanlovi orqali ochib beradi.

Kasb va ijtimoiy rolga xos leksika o'zbek dramaturgiyasida Sharof Boshbekov ijodi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, insonning ichki dunyosi va kundalik hayotdagi qarama-qarshiliklarni haqiqatga mos ruhda ochib berishi bilan farqlanadi. Uning dramalarida qahramonlarning nutqi individual xarakter bilan bir qatorda, ularning kasbiy mansubligi va ijtimoiy rolini ochib beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Sharof Boshbekov dramalarida kasb va ijtimoiy rolga xos leksika, asosan, oddiy xalq vakillari, ziyolilar, mansabdor shaxslar va maishiy muhit qahramonlari nutqida yaqqol ko'zga tashlanadi [4:15]. Muallif qahramonlarning ijtimoiy mavqeini bevosita tavsiflashdan ko'ra, ularning nutqida ishlatilgan so'zlar, iboralar va baholovchi birliklar orqali bilvosita ochib beradi, bu esa

dramaturgik matnning pragmatik qatlamini kuchaytiradi [2;41]. Masalan, rahbarlik lavozimidagi yoki ijtimoiy jihatdan ustun mavqega ega qahramonlar nutqida buyruq ohangi, rasmiy uslubga xos birliklar hamda qat'iy va qisqa gaplar ustuvorlik qiladi [1;20]. Aksincha, quyi ijtimoiy qatlam vakillari nutqida so'zlashuv uslubiga xos, hissiy-ekspressiv, ba'zan kinoyaviy va istehzoli birliklar faol qo'llanadi, bu holat ijtimoiy tengsizlik va ruhiy ziddiyatni yanada aniqroq ochishga xizmat qiladi [5;96]. Sharof Boshbekov dramaturgiyasida kasbiy leksika ko'pincha terminologik aniqlikdan ko'ra, ijtimoiy-belgilovchi vazifa bajaradi. Ya'ni kasbga oid so'zlar qahramonning mutaxassis sifatidagi bilimni emas, balki uning jamiyatdagi o'rni va nutqiy xulq-atvorini belgilaydi [3;73]. Shu sababli dramaturg kasbiy terminlardan cheklangan, biroq maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi [4;18]. Bundan tashqari, muallif ijtimoiy rolga xos leksikani kinoya va istehzo bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llaydi.

Sharof Boshbekov dramalarida leksik darajadagi sotsial xoslanish qahramonlar xarakterini ochish, ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatish va dramatik vaziyatni kuchaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Dramaturg har bir so'zni qahramonning ijtimoiy qatlamiga ("sosium"iga) moslab tanlaydi:

1. Murojaat birliklari va xalqona leksika: Oddiy xalq vakillari nutqida ishlatiladigan lutf, piching va xalqona iboralar orqali muallif milliy mentalitetning ijtimoiy manzarasini chizadi. Masalan, "Temir xotin" dramasiidagi Qo'chqor obrazi nutqi uning qishloq ijtimoiy muhitiga mansubligini, samimiyligi va ayni paytda ma'lum darajadagi "shovinizm"ini leksik qatlam orqali namoyon etadi.

2. Kinoyaviy va baholovchi so'zlar: Kinoya dramaturgning jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va ma'naviy inqirozlarni fosh qilishdagi asosiy qurolidir. So'zlarning salbiy konnotatsiyasi orqali shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar va personajning ichki dunyosi ("ma'naviy qiyofasi") yorqin tasvirlanadi. Nutqning ijtimoiy xosligi va stilistik tabaqalanishda yozuvchi dramalarida personajlar nutqi ularning nafaqat kasb-kori, balki dunyoqarashi va intellektual darajasiga mos ravishda differentsiyalashgan (farqlangan):

2. - So'zlashuv uslubi: Oddiy xalq vakillari nutqida shevaga xos so'zlar, jargonlar va vulgarizmlarning (dag'al so'zlar) uchrashi dramaning hayotiyligini ta'minlaydi.

- Rasmiylashgan nutq: Mansabdor yoki o'zini "yuqori qatlam" vakili deb hisoblovchi obrazlar nutqida kantselyarizmlar (rasmiy-idora so'zlari) va balandparvoz kitobiy leksikaning ustunligi ularning xalqdan uzilganini yoki sun'iy qiyofasini ochib beradi. Bu holat leksik darajadagi sotsial xoslanishning eng yorqin ko'rinishidir. Dramatik matnlarda pragmatik darajadagi ijtimoiy belgilanish nutqning tashqi ko'rinishidan ko'ra, uning tagma'nosini (implikatura) asosiy omil sifatida namoyon etadi. Pragmatik nuqtayi nazardan, muloqotda "nima deyildi?" emas, balki "nima maqsadda deyildi?" degan savol birlamchi o'ringa chiqadi.

- Nutqiy aktlar va ijtimoiy iyerarxiya: Buyruq shaklidagi gaplarning ochiq tahdid emas, balki "yumshoq bosim" ko'rinishida berilishi ijtimoiy ustunlikni namoyish etadi.

- Ijtimoiy masofa: Muloyimlik strategiyalari (politeness strategies) orqali personajlar o'rtasidagi masofa saqlanadi yoki qisqartiriladi. Masalan, quda-andachilik munosabatlarida nutqning o'ta rasmiylashuvi yoki qochiriqlarga boyligi pragmatik sotsial xoslanishga misol bo'la oladi. Sharof Boshbekov dramaturgiyasida dialoglar shunchaki axborot almashinuvi emas, balki ijtimoiy rollar to'qnashuvi ustiga quriladi. Har bir dialogik diskursda quyidagi munosabatlar dominantlik qiladi:

- Iyerarxik munosabatlar: (Rahbar-ijrochi, Ota-bola). Bunda nutq ohangi va leksik tanlov bo'ysunish yoki hukmronlik semalarini tashuvchi birliklardan tashkil topadi.

- Gorizontal munosabatlar: (Do'st-do'st, Er-xotin). Bunday muloqotlarda ijtimoiy rol o'zgarishi nutq shaklining "erkinlashuvi" yoki aksincha, konflikt paytida keskinlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Sharof Boshbekov asarlarida sotsial xoslanish shunchaki lingvistik hodisa

emas, balki badiiy-estetik funksiya bajaruvchi tizimdir. Dramaturg leksik va pragmatik vositalar orqali jamiyatning ijtimoiy arxitekturasini til birliklarida moddiylashtiradi. Bu esa kitobxon va tomoshabinga qahramonning ijtimoiy qiyofasini hech qanday qo'shimcha izohlarsiz, uning nutqidan anglab olish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sotsial xoslanish zamonaviy sotsiolingvistika va pragmalingvistikaning kesishmasida vujudga keladigan murakkab hodisa bo'lib, u nutqning ijtimoiy va kommunikativ tabiatini chuqurroq anglashga imkon beradi. [1.; 2.]. Sharof Boshbekov dramalarida bu tushuncha personajlar nutqi, dialog qurilishi va pragmatik maqsadlar orqali izchil va badiiy jihatdan mukammal aks ettirilgan.[3.;4.].

Yozuvchi nutq vositalari yordamida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va ziddiyatlarni ko'rsatadi, natijada sotsial moslashuv lingvistik element sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. [2.; 5.].

#### Adabiyotlar:

Wardhaugh R. An Introduction to Sociolinguistics. – Oxford: Blackwell, 2006.

Levinson S. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.

Yuldashev B. O'zbek tilshunosligida pragmalingvistika masalalari. – Toshkent, 2015.

Boshbekov Sh. Dramalar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2000.

Nurmonov A. Til va jamiyat munosabatlari. – Toshkent, 2012.

М.Хакимов.Ўзбек прагмалингвистикаси асослари.Тошкент”Академнашр” 2013

Verschueren J. Understanding Pragmatics. — London: Arnold, 1999.

Арутюнова Н. Д. Прагматика и речевая деятельность. — Москва: Наука, 1990.

Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 1966

Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. — London: Penguin Books, 2000. 7:18].

Yule G. Pragmatics. — Oxford: Oxford University Press, 1996.

Беляев Б. В. Социоллингвистика. — Москва: Просвещение, Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград.